



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIY TARAQQIYOT  
VA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VAZIRLIGI HUZURIDAGI  
“LOYIHALAR VA IMPORT KONTRAKTLARINI KOMPLEKS EKSPERTIZA QILISH MARKAZI”  
DAVLAT UNITAR KORXONASI**

2022-yil 30 noyabr № 45/01-06/1-8343 100084, Toshkent, Amir Temur shoh ko‘chasi, 107-B



**“Umumiy foydalanishdagi avtomobil  
yo‘llarini qurish va rekonstruksiya qilish  
direksiyasi” DUK**

**Tender hujjatini kompleks ekspertiza natijalari bo‘yicha**

**XULOSASI**

<b>Loyihaning nomi</b>	M39 “Almati - Bishkek - Toshkent - Shahrissabz - Termiz” avtomobil yo‘lining 1255-1315 qismini rekonstruksiya qilish” obyektini bo‘yicha Ishchi hujjatini (IH) ishlab chiqish.
<b>Buyurtmachi arizasining raqami va sanasi</b>	2022-yil 29-noyabrdagi GZ/05-3333-sonli xati.
<b>Buyurtmachi</b>	“Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini qurish va rekonstruksiya qilish direksiyasi” DUK
<b>Loyixa amalga oshirilishi uchun asos</b>	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi PQ-72-son qarori.
<b>Moliyalashtirish manbai</b>	Davlat byudjet mablag‘ari hisobidan.
<b>Loyihaning chegaraviy narxi</b>	10 200 000 000 so‘m, QQS bilan, 8 869 565 217 so‘m, QQS siz.
<b>Ekspertiza o‘tkazish uchun asos</b>	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 - yil 8 - yanvardagi PQ-3464-sonli va 2018-yil 20-fevraldagi PQ-3550-sonli qarorlari.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi “Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” DUK (keyingi o‘rinlarda Markaz deb yuritiladi) “M39 “Almati - Bishkek - Toshkent - Shahrisabz - Termiz” avtomobil yo‘lining 1255-1315 qismini rekonstruksiya qilish” obyektini bo‘yicha Ishchi hujjatini (IH) ishlab chiqish” obyektini bo‘yicha tender xujjatining takroriy o‘tkazilgan kompleks ekspertiza natijalari bo‘yicha e‘tirozlar mavjud emasligi va davlat xaridlarini belgilangan tartibda o‘tkazish mumkinligini ma‘lum qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunining (2021-yil 22-apreldagi O‘RQ-684-sonli) 33-moddasiga muvofiq, davlat xaridlari qiymatining bozor narxlariga muvofiqligini baholash uchun davlat buyurtmachisi ochiq axborot manbalaridagi axborotlardan yoki boshqa ishonchli manbalardan foydalanishi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 11-iyundagi 261-sonli “Markazlashtirilgan kapital qo‘yilmalar hisobidan amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda shartnomaviy joriy narxlarga o‘tish to‘g‘risida”gi qarorining 1-ilovasi 4-bandiga muvofiq buyurtmachi tomonidan aniqlangan boshlang‘ich qiymati tanlov savdolari (tenderlar) o‘tkazishda yo‘nalish hisoblanadi va pudrat shartnomasi (kontrakt) tuzish uchun asos bo‘lib xizmat qilmaydi. Obyektning shartnoma qiymati o‘tkazilgan tanlov savdolari (tenderlar) natijalari bo‘yicha aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-son “Shaharsozlik hujjatlarini ekspertizadan o‘tkazish tartiblarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq Buyurtmachi va loyihalash tashkiloti ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma‘lumotlarning to‘g‘riligi va qabul qilingan loyiha yechimlari uchun javobgardir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi PQ-332-son qarori talablariga muvofiq taqdim etilgan hujjatlarning ishonchliligi va aynan bir xilligi yuzasidan javobgarlik buyurtmachi zimmasiga yuklanishini bildiramiz.

**M. Allabergenov**

B. Xusanov

G‘. Shodiyev

L. Dusmuxamedov

K. Raximbekov

